

SUG`URTA BOZORINING RIVOJLANISH KO`RSATKICHLARI

Muqimova Husnora

Talaba

Umirov.A

Ilmiy rahbar

Annotasiya Ushbu tezis mamlakatimizda sug`urta bozorida rivojlanish ko`rsatkichlari haqida ma`lumotlar yoritilgan va sug`urta bozorini rivojlantirish maqsadida bir nechta vazifalar ko`rib chiqilgan.

Kalit so`zлari Jalon bozori,taraqqiyot strategiyasi, iqtisodiy o`sish,real sector, tashqi va ichki investitsiya, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, sug`urta bozori, sug`urta xizmatlari, sug`urta faoliyati, sug`urta mukofoti, shartnomalar.

Bugungi kunda jahon bozorida yuzaga kelayotgan keskin o`zgarishlar va raqobat tobora kuchayayotgani sababli davlatimizni yuqori sur`atlarda rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashish talab etilmoda. Shu asnoda mamlakatimida qabul qilingan 2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o`sish sur`atlarini saqlab qolishda bir necha vazifalar belgilanib olindi. Shulardan biri sug`urta sektorining rolini oshirish, iqtisodiyotning real sektori, tashqi va ichki investitsiyalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug`urta yo`li bilan himoyalashning xalqaro tajribasini o`rganish va muhokama qilish, fuqarolarga ko`rsatiladigan sug`urta xizmatlarini rivojlantirish va aholining sug`urta madaniyatini oshirish, sug`urta bozorini tartibga solishning prudensial normalarini takomillashtirish hamda sug`urta faoliyatini raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta`minlashdir.

Mamlakatimizda bosqichma - bosqich bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiyot subyektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustaqilligi, erkinligi darajasi ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo`lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo`lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya`ni o`ziga xos bo`lgan maxsus xizmat bilan sug`urta shug`ullanadi. Sug`urta o`zi mol-mulk, sog`liq yoki hayot, biznes, va qiymatga ega bo`lgan boshqa yo`nalishdagi xatarlarning moliyaviy himoyasidir.

Islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning barqaror o`sishini ta`minlashga, aholi hayotining sifati va darajasini oshirishga yo`naltirilgan moliyaviy xizmatlarni faol rivojlantirish respublikada sug`urta bozorining rolini kuchaytirishni va sug`urta vositalarini keng qo`llashni taqozo etmoqdaki, ushbu xususida Prezidentimiz Sh.Mirziyoev sug`urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo`yicha o`tkazgan yig`ilishida quyidagi fiklarni bildirdilar: "Sohaga nazoratchi emas, ilg`or va zamonaviy standartlarni joriy etadigan, barcha ishtirokchilar

o'rtasida chinakam raqobat muhitini yaratib, sug'urta bozorini rivojlantiradigan tuzilma kerak".

Shu bois, Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiysi tugatilib, Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Shuningdek, sug'urta sohasini o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, 2022 yilgacha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofoti hajmini 3 baravar, sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini esa 2 barobar oshirish vazifasi qo'yildi.

1-jadval

2019-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini jadal rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2018 y. (fakt)	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O'sishi ,barob ar
1.	Sug'urta xizmatlarining YAIMdagiulushi (<i>foiz</i>)	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	2
2.	Aholi jon boshiga sug'urta mukofotining miqdori (<i>min gso'm</i>)	50,0	65,0	88,0	114,0	148,0	3
3.	Jami sug'urta mukofotlarining hajmi (<i>trln so'm</i>)	1,6	2,1	2,9	3,8	5,2	3,3
4.	Sug'urta tashkilotlarining jami ustav kapitali (<i>trln so'm</i>)	0,5	0,8	0,9	1,0	1,2	2,4
5.	Sug'urta tashkilotlarining jamiaktivlari (<i>trln so'm</i>)	2,5	3,0	3,6	4,3	5,2	2,1
6.	Sug'urta tashkilotlarining jami investitsiyalari (<i>trln so'm</i>)	2,0	2,5	3,3	4,1	5,3	2,7
7.	Sug'urta xizmatlari turlarining soni (<i>birlilik</i>)	105	115	135	155	175	1,7
8.	Hududiy bo'limmalar soni (<i>birlilik</i>)	1 450	1 500	1 580	1 660	1 740	1,2

2021-yil yakuniga ko'ra O'zbekiston sug'urta bozorining moliyaviy ko'rsatgichlari quyidagicha:

- sug'urta kompaniyalarining jami ustav kapitali – 1,6 trln. so'mni;
- yig'ilgan sug'urta mukofotlari – 3,7 trln. so'mni;
- to'langan sug'urta to'lovlari – 1,2 trln. so'mni;
- sug'urta kompaniyalarining investitsiyalari – 3,8 trln. so'mni;
- sug'urta bozorida tuzilgan shartnomalar soni – 7,6 mln. dona tashkil etdi.

O'zbekistonda sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega sug'urta tashkilotlari soni 127 foizga [ko'paydi](#).

O'zbekistonda 2022-yil 1-iyul holatiga sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan jami 42 ta sug'urta tashkiloti mavjud. (2019-yil 1-yarim yilligiga nisbatan 127 foizga o'sgan). Shulardan, 34 tasi-umumiyligida sug'urta va 8 tasi-hayotni sug'urta qilish sohasida faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozori ko'rsatkichlari ko'ra, 2022-yil 1-yarim yilligida 7,0 mlndan ortiq sug'urta shartnomalari tuzilgan bo'lib, (2019 yil 1-yarim yilligiga nisbatan 106 foiz), ular bo'yicha 2 771 mlrd so'm sug'urta mukofotlari yig'ilgan, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mazkur davriga nisbatan 63,2 foizga oshgan.(2019-yil 1-yarim yilligiga nisbatan 2,2 barobarga o'sgan).

Mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish ko'raklichlarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarim shakllantirdim. Bugungi kunda mamlakatimida sug'urta bozori rivojlanishi jadal sur'atlarda o'sayotgan bo'lsada, lekin hali ham aholimizning aksariyat qismi sug'urta xizmatlari haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Bu muammolarni hal qilinishi esa sug'urta turiga bo'lgan talabning ortishiga va moliyaviy holatlarni yaxshilanishiga turtki bo`ladi.

